



## XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 7 - oktabr

VI-84-233-7-95-K/22

Ishtixon tuman hokimligi

### **Ishtixon tumanida mahalliy infratuzilmani rivojlantirish loyihalarga tuman budjeti mablag‘larining bir qismini bevosita fuqarolarning tashabbusi asosida yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprelda “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-sentabrda “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5250-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 20-sentabrdagi KQ-406-IV-sonli Qarorlariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, 84-sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 20-sentabrdagi KQ-406-IV-sonli Qarori hamda tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri S.Ibragimovning 2022-yil 3-oktabrdagi NQ26455534-sonli xati ijro va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining 2022-yil 23-sentabrdagi VI-83-227-7-95-K/22- sonli qarorining ilovasi quyidagi tahrirda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

- Fuqarolar tashabbusi asosida g‘olib bo‘lgan tadbirlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Ochiq budjet” axborot portali

orqali ovoz berish jarayonida eng ko‘p ovoz to‘plab g‘olib bo‘lgan takliflar, ovozlar soniga ko‘ra, yuqoridan pastga tamoyili asosida shuningdek, “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasida shakllangan mablag‘lar hajmidan kelib chiqib aniqlansin hamda 2- ilovaga muvofiq;

- tuman bo‘yicha 2022-yil 2-mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha “Manzilli ro‘yxati” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va mablag‘lar yo‘naltirilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi, “Ishtixon ovozi” gazetasi bosh muharriri (G.Usmonova)lar tuman hokimligi moliya bo‘limi (S.Ibragimov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida keng jamoatchilikni muntazam ravishda yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (S.Ibragimov)ga har bir taklif bo‘yicha tegishli shaxsiy hisob raqamlar ochish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (A.Turdiyev)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Ibragimov), tuman xalq ta‘limi bo‘limi (I.Fozilov), tuman tibbiyot birlashmasi (O.Xo‘jamov) va tuman hokimligi bosh hisobchisi (N.Qo‘ziyev) “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan ajratilgan mablag‘larni maqsadli sarflanishi yuzasidan mas‘ul ekanligi belgilansin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritsin.

5. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da shakllangan mablag‘lar qonunchilikda belgilangan tartibda faqat jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilsin va ushbu mablag‘lar boshqa maqsadlarga ishlatish taqiqlansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Egamov), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Q.Nuriddinov) zimmlariga yuklansin.

**Kengash raisi**



**F.K.Ruziyev**

Xalq deputatlari Ishtixon tuman Kengashining  
2022 yil 7 oktabrdagi  
VI-84-233-7-95-K/22-son qaroriga  
2-ilova

**Ishtixon tumani bo'yicha 2022-yil 2-mavsum jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha  
"MANZILLI RO'YXAT"**

№	G'olib takliflar ma'lumoti					Amalga oshirishning dastlabki qiymati, mln.so'm	Haqiqatda ajratilgan, mln.so'm	Moliyalashtirish manbasi	Buyurtmachi tashkilot	Loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan hujjatlar	Xarid qilish tartib-taomili turi
	Taklif ID raqami	Manzili	Balansda saqllovchi	Qisqacha mazmuni	To'plangan ovozlari soni						
<b>"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" da shakllangan mablag'</b>							<b>7 479,9</b>	<b>x</b>	<b>x</b>		<b>x</b>
1	1000600149	Ishtixon tuman Xalqobod MFY	Ishtixon Obodonlashtirish boshqarmasi	Ishtixon tuman Xalqobod MFY Bodoy qishlog'i 3,8 kmni asfaltlashtirish.	8441	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Ishtixon Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash
2	1000600042	Ishtixon tuman Qoraqishloq MFY	Ishtixon tuman xalq ta'limi bo'limi	Ishtixon tuman Qoraqishloq MFY hududidagi 48-umumta'lim maktabida "Besh tashabbus markazi" (90 o'rinli faollar zali, 30 o'rinli qizlarni faol hayotga tayyorlash xonasi, 30 o'rinli AKM xonasi) qurish	7485	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Samarqand viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK	loyiha-smeta hujjatlari	Tender
3	1000600002	Ishtixon tuman Qoraqishloq MFY	Ishtixon Obodonlashtirish boshqarmasi	Ishtixon tuman Qoraqishloq MFY Yangiyer qishlog'i 3,5km ichki yo'llarini asfaltlashtirish.	7409	1200,0	1200,0	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Ishtixon Obodonlashtirish boshqarmasi	loyiha-smeta hujjatlari	Eng yaxshi takliflarni tanlash